


# **Gerb**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI**




Davlat gerbi O`zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagи 616-XII-sonli [«O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to`g`risida»gi](#) Qonuni bilan tasdiqlangan.

O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko`rinishga ega: tog`lar, daryolar va so`l томони bug`doy boshoqlaridan, o`ng томони esa chanoqlari ochilgan g`o`za shoxlaridan iborat chambarga o`ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo`lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida «O'zbekiston» deb yozib qo`yilgan.

O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko`rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida; quyosh, boshoqlar, paxta chanoqlari va «O'zbekiston» yozuvi — oltin rangida; g`o`za shoxlari va barglari, tog`lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta — oq rangda; lenta — O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak — oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar — oq rangida tasvirlangan.

## **QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI'NI'N' MA'MLEKETLIK GERB**



«Qoraqalpog`iston Respublikasi Davlat gerbi to`g`risida» Qonun 9-aprel 1993-yilda Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesining XII sessiyasida qabul qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat gerbi Qoraqalpog'iston Respublikasining suvere  
n davlat ekanligini bildiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat gerbi - o'zida o'ng tomoni sholi boshoqlaridan,  
so'l tomoni ochilgan paxta chanoqlari va tog' ortidan chiqoyotgan quyoshni, A'mudaryo  
va Arol misoli bo'lgan daryo va dengiz rasmlari tasvirlangan.

Gerbning yoqorgi qismida sakkiz qirli shakli rasm bo'lib, xaliqlarning birligini, uning  
ichidagi yarim oy va yulduz rasmi musulmonlarning muhaddas timsoli hisoblanadi. Ge  
rbning markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy humo qushi  
qanotlarini yozib turibdi. Humo qush rasmining ortida qoraqalpoq xalqining tarixiy  
madaniyatidan hisoblangan Shilpiq qorg'onining, ya'niy xalqimizning madaniyati tarixi  
uzoq-uzoqlarga borib taqalsada, hamiysha navquron erkinligini anglatuvchi qo'rg'on  
rasmi mavjud.

Gerbning pastki qismida Gerbning pastki qismida respublika davlat bayrog'ini ifoda  
etuvchi chambar lentasining bandiga "Qaraqalpaqstan" deb yozib qo'yilgan..